



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 254 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamisheva	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	



BO'LAJAK OLIGOFRENO- PEDAGOGLARNING KOMPETENTLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali o'qtuvchisi



Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Intellectual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan hamda refleksiv yondashuvlar asosida amalga oshirilishi zarurligi asoslab beriladi.

Tadqiqotda motivatsion muhit yaratish, kasbiy identifikatsiyani shakllantirish, pedagogik empatiyani rivojlantirish, amaliyotga yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi omillar kompetentlik faoliyatini tashkil etishning muhim shartlari sifatida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarning diagnostik, korreksion-rivojlantiruvchi, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarini shakllantirishda psixologik tayyorgarlik hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashning o'rni ochib beriladi.

Kalit so'zlar: oligofrenopedagog, kasbiy kompetentlik, kompetentlik faoliyati, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, kasbiy motivatsiya, pedagogik empatiya, refleksiv yondashuv, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim.

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical conditions for the effective organization of the competence-based activities of future oligophrenopedagogues from scientific, theoretical, and practical perspectives. It substantiates that the formation of professional competence in the process of training specialists working with children with intellectual disabilities should be carried out on the basis of person-oriented, activity-based, and reflexive approaches.

The study indicates that factors such as creating a motivational environment, forming professional identity, developing pedagogical empathy, strengthening practice-oriented education, and using innovative technologies are essential conditions for organizing competence-based activities. It also reveals the role of psychological preparation and pedagogical support in the formation of diagnostic, correctional-developmental, communicative, and reflexive competencies of future oligophrenopedagogues.

Key words: oligophrenopedagogue, professional competence, competence-based activity, psychological and pedagogical conditions, special pedagogy, inclusive education, professional motivation, pedagogical empathy, reflexive approach, practice-oriented education.

Аннотация: В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются психолого-педагогические условия эффективной организации компетентностной деятельности будущих олигофренопедагогов. Обосновывается, что формирование профессиональной компетентности в процессе подготовки специалистов, работающих с детьми с интеллектуальными нарушениями, должно осуществляться на основе личностно-ориентированного, деятельностного и рефлексивного подходов.

Исследование показывает, что важными условиями организации компетентностной деятельности являются такие факторы, как создание мотивационной среды, формирование профессиональной идентичности, развитие педагогической эмпатии, укрепление практико-ориентированного обучения и использование инновационных технологий. Также раскрывается роль психологической подготовки и педагогической поддержки в формировании диагностической, коррекционно-развивающей, коммуникативной и рефлексивной компетентности будущих олигофренопедагогов.

Ключевые слова: олигофренопедагог, профессиональная компетентность, компетентностная деятельность, психолого-педагогические условия, специальная педагогика, инклюзивное образование, профессиональная мотивация, педагогическая эмпатия, рефлексивный подход, практико-ориентированное обучение.



KIRISH

Jahon ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning keng joriy etilishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga yangi talablarni qo'yimoqda. Intellectual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlovchi pedagog – oligofrenopedagog faoliyati nafaqat maxsus metodik bilimlarni, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlikni, empatiya, sabr-toqat va refleksiv tahlil qobiliyatini ham talab etadi. Shu bois bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini samarali tashkil etish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kompetentlik yondashuvi ta'lim jarayonini natijaga yo'naltirilgan model asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu borada kasbiy kompetentlik nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi, balki shaxsning kasbiy vazifalarni samarali bajarishga tayyorligi hamda qobiliyatini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda kompetentlik tushunchasi shaxsning motivatsion, kognitiv, faoliyatga oid va refleksiv komponentlari birligi sifatida izohlanadi. Xususan, Vygotsky L.S. tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi ham ta'lim jarayonida shaxsiy faoliyat va ijtimoiy o'zaro ta'sirning muhimligini asoslab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishda psixologik omillar alohida ahamiyatga ega. Kasbiy motivatsiya, empatik qobiliyat, stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuvchanlik kabi sifatlar pedagogning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonning to'g'ri tashkil etilishi – amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlarni modellashirish, refleksiv tahlil va mentorlik tizimi – talabalarda kasbiy identifikatsiya hamda mas'uliyat hissini shakllantiradi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida maxsus pedagoglarni tayyorlash jarayoni nazariy va amaliy komponentlarning uyg'unligiga asoslanishi lozim. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda ta'lim jarayonida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilmaydi, bu esa talabalarning kasbiy kompetentligini to'liq shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Ayniqsa, real pedagogik vaziyatlarga moslashtirilgan mashg'ulotlar, individual yondashuv hamda refleksiv tahlil mexanizmlarining yetishmasligi muammoli jihatlardan biridir. Shu munosabat bilan bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash hamda ularning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida kompetentlik faoliyati tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, psixologik va pedagogik omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qilish hamda samarali ta'lim muhitini yaratish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish belgilandi. Mazkur tadqiqot bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, tizimli, kompetensiyaviy hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqot metodologik jihatdan faoliyat nazariyasi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasi hamda kasbiy shakllanish nazariyalariga tayanadi. Nazariy asos sifatida Vygotsky L.S.ning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi, Leontiev A.N.ning faoliyat nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha zamonaviy pedagogik konsepsiyalar tahlil qilindi. Ushbu nazariy manbalar kompetentlikni shaxsning bilim, ko'nikma, motivatsiya va refleksiv tajribasining integrativ tizimi sifatida talqin qilish imkonini berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot aralash metodologiya (mixed-method research) asosida tashkil etildi. Sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) usullar uyg'unlashtirildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

- diagnostik bosqich – talabalarning mavjud kasbiy kompetentlik darajasini aniqlash;
- tajriba-sinov bosqichi – psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida maxsus ta'lim modelini joriy etish;
- nazorat-tahlil bosqichi – natijalarni baholash va samaradorlikni aniqlash.

Tadqiqotda pedagogika oliy ta'lim muassasasining "Maxsus pedagogika" yo'nalishida tahsil olayotgan 3-4-bosqich talabalari ishtirok etdi. Ishtirokchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida kompetentlik faoliyatini tashkil etishning maxsus psixologik-pedagogik modeli qo'llanildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'quv jarayoni saqlab qolindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv – talabalarning kasbiy vaziyatlarda faoliyat yuritish ko'nikmalarini aniqlash;



- psixologik diagnostika metodikalari – kasbiy motivatsiya, empatiya, refleksivlik va stressga chidamlilik darajasini aniqlash;
- so'rovnomalar va testlar – kompetentlik komponentlarini baholash;
- amaliy topshiriqlar va keys-stadi (case study) – real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish;
- portfolio tahlili – talabalarning ishlab chiqqan individual ta'lim dasturlari va korreksion rejalarini baholash;
- statistik tahlil – o'rtacha ko'rsatkichlar, foizli o'zgarishlar va dinamik o'sish darajasini aniqlash.

Kompetentlik faoliyati quyidagi komponentlar asosida baholandi:

- motivatsion komponent – kasbiy faoliyatga ichki ehtiyoj va qiziqish;
- kognitiv komponent – maxsus pedagogik bilimlar darajasi;
- faoliyatli komponent – diagnostik va korreksion vazifalarni bajarish ko'nikmasi;
- kommunikativ komponent – bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot;
- refleksiv komponent – o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar triangulyatsiyasi qo'llanildi, ya'ni bir xil ko'rsatkichlar turli metodlar yordamida tekshirildi. Statistik qayta ishlash orqali tajriba va nazorat guruhlar natijalari taqqoslandi. Shunday qilib, qo'llanilgan metodologiya bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishda psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligini ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi. Tajriba-sinov ishlari yakunlari bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etish ularning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlar o'rtasida kompetentlik ko'rsatkichlarida sezilarli farq kuzatilmagan bo'lsa, tajriba bosqichidan so'ng ijobiy dinamik o'zgarishlar aniqlandi.

Motivatsion komponent natijalari: tajriba guruhida kasbiy motivatsiya darajasi sezilarli oshdi. Dastlab yuqori motivatsiya darajasiga ega talabalar ulushi 32% ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida bu ko'rsatkich 68% ga yetdi. Nazorat guruhida esa o'sish 35% dan 42% gacha kuzatildi. Bu natija maxsus tashkil etilgan refleksiv mashg'ulotlar, kasbiy identifikatsiyani shakllantirishga qaratilgan treninglar va mentorlik tizimi samaradorligini tasdiqlaydi. Kognitiv komponent natijalari: maxsus pedagogik bilimlar bo'yicha tajriba guruhida o'rtacha ko'rsatkich 28% ga oshdi. Talabalar diagnostik metodlar, individual ta'lim dasturlarini tuzish va korreksion ishlash mexanizmlarini chuqurroq o'zlashtirdilar. Nazorat guruhida esa o'sish 10-12% atrofida bo'ldi. Faoliyatli (amaliy) komponent natijalari: real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadi va amaliy mashg'ulotlar natijasida tajriba guruhida yuqori darajadagi faoliyat ko'rsatkichlari 30% dan 72% ga oshdi. Talabalar mustaqil ravishda korreksion dastur ishlab chiqish va uni asoslab berish qobiliyatini namoyon etdilar. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 33% dan 48% ga o'sdi.

Kommunikativ komponent natijalari: pedagogik empatiya va muloqot ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Tajriba guruhida samarali pedagogik muloqot darajasi 40% dan 75% ga oshdi. Ayniqsa, ota-onalar bilan ishlash va jamoaviy muhokamalarda ishtirok etish ko'rsatkichlari yaxshilandi. Refleksiv komponent natijalari: refleksiv faoliyat ko'rsatkichlari tajriba guruhida eng katta o'sishni ko'rsatdi. Yuqori darajadagi refleksivlik 25% dan 70% ga oshdi. Talabalar o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqishda ancha faol bo'ldilar.

Umuman olganda, tajriba guruhida barcha komponentlar bo'yicha o'rtacha o'sish 30-35% ni tashkil etdi, nazorat guruhida esa 10-15% atrofida bo'ldi. Statistik tahlil natijalari olingan farqlar ishonchli ekanini ko'rsatdi ($p < 0,05$). Natijalar shuni tasdiqlaydiki, kompetentlik faoliyatini psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida tizimli tashkil etish bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini samarali tashkil etishda psixologik-pedagogik shart-sharoitlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar kompetentlikni faqat bilim va ko'nikmalar majmui sifatida emas, balki shaxsning motivatsion, emotsional, faoliyatga oid va refleksiv jihatlarini o'z ichiga olgan integrativ sifat sifatida shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchidan, motivatsion komponentning sezilarli darajada oshishi kasbiy identifikatsiyani shakllantirish va ichki kasbiy ehtiyojni rivojlantirish uchun maxsus psixologik muhit yaratish muhimligini ko'rsatadi. Talabalarning kasbga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, ularda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish kompetentlik faoliyatining asosiy sharti ekanligi aniqlandi.

Ikkinchidan, faoliyatga oid komponent bo'yicha olingan natijalar amaliyotga yo'naltirilgan ta'limning ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Real pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, keys-stadi, amaliy mashg'ulotlar hamda refleksiv tahlil talabalarning mustaqil qaror qabul qilish va korreksion faoliyatni tashkil etish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jihat faoliyat nazariyasida asoslab berilgan yondashuvlar bilan uyg'unlashadi. Xususan, Leontyev A.N. tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat konsepsiyasida shaxs rivoji faoliyat jarayonida yuz berishi ta'kidlangan.

Uchinchidan, kommunikativ va empatik kompetensiyalarning o'sishi pedagogik jarayonda psixologik tayyorgarlikning alohida ahamiyatini ko'rsatdi. Intellektual rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogning emotsional barqarorligi, empatiyasi va samarali muloqot ko'nikmalari kasbiy muvaffaqiyatning muhim omilidir.

Shuningdek, refleksiv kompetensiyaning yuqori darajada rivojlanishi talabalarning o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga tayyorligini oshirganini ko'rsatdi. Bu esa kompetentlik faoliyatini tashkil etishda refleksiv yondashuvni tizimli ravishda qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

XULOSA

Bo'lajak oligofrenopedagoglarning kompetentlik faoliyatini samarali tashkil etish psixologik va pedagogik omillarning uzviy integratsiyasini talab qiladi. Kasbiy motivatsiyani shakllantirish, pedagogik empatiyani rivojlantirish va refleksiv muhit yaratish kompetentlik faoliyatining muhim shart-sharoitlari hisoblanadi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, muammoli vaziyatlarni modellashtirish va mentorlik tizimi talabalarning faoliyatli kompetensiyasini sezilarli darajada oshiradi. Refleksiv tahlil mexanizmlarini tizimli joriy etish kasbiy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish jarayonini faollashtiradi. Shunday qilib, kompetentlik faoliyatini psixologik-pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etish bo'lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi hamda ularning maxsus pedagogik faoliyatga samarali moslashuvini ta'minlaydi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda kompetentlik modelini yanada takomillashtirish, raqamli va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish hamda inklyuziv ta'lim sharoitida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Leontiev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
2. Vygotsky L.S. Myshleniye i rech (Tafakkur va nutq). – Moskva: Pedagogika, 1934.
3. Elkonin D.B. Psixik rivojlanishning yosh davrlari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
4. Rubinstein S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva: Pedagogika, 1989.
5. Zimnyaya I.A. Klyuchevye kompetensii kak rezultat sovremennogo obrazovaniya. – Moskva: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2004.
6. Shmatko N.D. Oligofrenopedagogika. – Moskva: Vldos, 2003.
7. Pevzner M.S. Oligofreniya u detey. – Moskva: Prosveshcheniye, 1979.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 2020.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.
10. UNESCO. Education for All: Global Monitoring Report. – Paris, 2015.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.